ARAB MAQOLLARIDA DO‘STLIK KONSEPTINING IFODALANISHI

Najimova Habiba
Oriental universiteti, Filologiya fakulteti Arab tili yo‘nalishi
AF201-guruh talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.20490541

Annotatsiya: Mazkur tadqiqot arab xalq maqollarida do‘stlik konseptining ifodalanishini o‘rganishga bag‘ishlangan. Ishda arab folkloridagi maqollarning mazmuniy, semantik va qisman grammatik xususiyatlari tahlil qilinadi. Ayniqsa, do‘stlik tushunchasini ifodalovchi “الصَّدِيق” leksemasining ma’no doirasi va uning maqollardagi qo‘llanishi keng yoritilgan. Arab va o‘zbek maqollari qiyosiy tahlil qilinib, ulardagi o‘xshash va farqli jihatlar aniqlangan. Tadqiqot natijasida do‘stlik konsepti arab maqollarida sodiqlik, ishonch va sinov orqali namoyon bo‘lishi asoslab beriladi.
Kalit so‘zlar. arab xalq maqollari, do‘stlik konsepti, الصَّدِيق, semantik tahlil, qiyosiy tahlil, folklor, leksik ma’no, sodiqlik, ishonch.

Kirish. Hozirgi globallashuv jarayonida turli xalqlarning madaniy merosini, xususan, xalq og‘zaki ijodi namunalarini o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Arab maqollari xalqning asrlar davomida shakllangan hayotiy tajribasi, axloqiy qarashlari va ijtimoiy munosabatlarini aks ettiradi. Ular orasida do‘stlik konsepti alohida o‘rin tutib, insonlararo munosabatlarning eng muhim qadriyatlaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Shu sababli arab maqollarida do‘stlik konseptining lingvokulturologik va semantik jihatdan o‘rganilishi dolzarb hisoblanadi.“Konsept” atamasi ongimizda shakllangan ma’lum bir tushuncha va uning mazmuniy doirasini anglatadi. Shu nuqtai nazardan, do‘stlik konsepti insonlarning do‘stlik haqidagi barcha tasavvurlari, qarashlari va baholarining yig‘indisi sifatida namoyon bo‘ladi. Do‘stlik konsepti o‘zida bir qator muhim axloqiy va ijtimoiy belgilarni mujassam etadi. Avvalo, do‘stlik ishonchga asoslanadi, ya’ni do‘stlar bir-biriga suyanadi va sirlarini bemalol ishonib topshira oladi. Shuningdek, sadoqat ham muhim omillardan biri bo‘lib, u insonning nafaqat yaxshi kunlarda, balki qiyin vaziyatlarda ham do‘sti yonida bo‘lishini anglatadi. Do‘stlikda yordam va qo‘llab-quvvatlash alohida o‘rin tutadi, chunki haqiqiy do‘st har qanday sharoitda yordam qo‘lini cho‘zadi. Bundan tashqari, samimiylik va rostgo‘ylik ham do‘stona munosabatlarning ajralmas qismi hisoblanadi. Ana shu jihatlar do‘stlikni oddiy tanishlikdan ajratib turadi va uni insoniy qadriyat darajasiga ko‘taradi. Tilshunoslik va madaniyatshunoslikda do‘stlik konsepti alohida o‘rganiladi.

Adabiyotlar sharhi. Arab tilshunosligida maqollar (الأمثال) va ularning semantik-uslubiy xususiyatlari qadimdan tadqiq etib kelinadi. Arab maqollarini tadqiqi etish 8 asrdan boshlangan. Arab adibi Ubayd Jurjumiy (8 asr) Saxar ibn Dabiy, fors adibi Abu Fadl Maydoniy kabi bir qator olimlar kabi Mahmud Zamaxshariy ham “al-Mustaqso min amsali-arab” nomli kitobini tuzgan. Unda turli davr poemalaridan tashqari “Kalila va Dimna” kitobidan ham parchalar keltirgan. Mazkur maqolada arab maqol va matallari haqida ijod etgan buyuk turkiy allomalar asarlari aniqlandi va Markaziy Osiyo xalqlarining madaniyati, ma’rifati, milliy qadriyati osori-atiqalarini o‘rgangan tarixshunos, sharqshunos olimlar Xerman Vamberi, A.Yu.Yakubovskiy, S.P.Tolstov, Ye.E.Bertels, V.V.Bartold, Ye.Berezikov[1] va boshqa allomalarning asarlarida arab maqollarining mazmuniy va axloqiy

[1] Қасимова С. Араб мақол ва маталлари ҳақида ижод этган буюк туркий алломалар асарлари. Oriental studies №1. T.: 2020. –Б.154.

jihatlari yoritilgan. O‘zbek tilshunosligida X.Abdurahmonovning tadqiqotida maqollarning sintaktik xususiyatlari tahlil qilingan[2]. B. Jo‘rayeva o‘zbek xalq maqollarini semantik-uslubiy jihatdan o‘rgangan va birinchi bo‘lib “O‘zbek xalq maqollarining qisqacha sinonimik lug‘ati” ni yaratgan[3]. M.Sadriddinovaning tadqiqot ishida esa o‘zbek xalq maqollari leksikasi tadqiq etilib, o‘zbek adabiy tili va shevalari bilan qiyoslangan[4]. P.Bakirovning tadqiqotida nominasentrik maqollarning semantik-struktur xususiyatlari rus, o‘zbek va qozoq tili materiallari asosida yoritilgan[5].

Arab tilshunosligida Muhammad As-Sulaim arab maqollarining chog‘ishtirma tadqiqini olib borgan, Vafa Abu Bakr arab tilini o‘qitishda maqollarning o‘rni haqida ilmiy ish yozgan, Inam Ismael Taher arab va ingliz maqollarini kognitiv va semantik jihatdan chog‘ishtirma aspektda o‘rgangan[6]. Shuningdek, Sh.Shomusarov arab xalq maqollarini folklor nuqtai nazaridan o‘rgangan[7]. A.Qahhorov “Al-Johizning “Kitab al-hayavan” asarida “Masal” nomli nomzodlik disseretatsiyasida maqol va matallarning grammatik qurilishini mavzular bo‘yicha keng tahlil qilgan[8]. Arab folklori va unda maqollar haqida T.Muxtarov o‘zining nomzodlik dissertatsiyasida yoritib o‘tgan[17].

Tadqiqot metadologiyasi. Mazkur tadqiqotda arab xalq maqollarida do‘stlik konseptining qanday ifodalanishi sodda va tushunarli usullar yordamida o‘rganildi. Avvalo, arab va o‘zbek maqollari o‘zaro taqqoslanib, ulardagi do‘stlik haqidagi o‘xshash va farqli jihatlar aniqlandi. Bu orqali ikki xalqning do‘stlikka bo‘lgan qarashlari qiyosiy tarzda tahlil qilindi.

Shuningdek, maqollarda uchraydigan asosiy so‘zlar, xususan “الصَّدِيق” (do‘st) leksemasining ma’nosi o‘rganildi. Bu so‘zning nafaqat oddiy do‘st, balki ishonchli, sodiq va yaqin inson ma’nolarini ham anglatishi tahlil qilindi. Shu orqali do‘stlik tushunchasining mazmuni kengroq yoritib berildi.

Tadqiqot davomida maqollarning qaysi vaziyatda qo‘llanishi ham ko‘rib chiqildi. Ya’ni ular hayotning qaysi holatlarida ishlatilishi va qanday ma’no berishi misollar asosida tushuntirildi. Bundan tashqari, maqollarning gap tuzilishi ham o‘rganilib, ularning qisqa, lekin mazmunan boy bo‘lish sabablari izohlandi.

Yakunida barcha tahlillar umumlashtirilib, tartibga solindi va umumiy xulosalar chiqarildi. Natijada arab maqollarida do‘stlik konsepti sodda, lekin chuqur ma’nolar orqali ifodalanishi aniqlandi.

Tahlil va natija. Arab maqollarida do‘stlik ko‘pincha “الصَّدِيق” (as-sadiq do‘st) leksemasi orqali ifodalanadi. Bu so‘z semantik jihatdan nafaqat yaqin insonni, balki ishonchli, sodiq va samimiy hamrohni anglatadi. Shu bois do‘stlik konsepti keng semantik maydonga ega bo‘lib, u insoniy munosabatlarning turli qirralarini qamrab oladi.

Masalan, mashhur arab maqoli:

---

[2] Абдураҳмонов Х. Особенности синтаксиса узбекского устного народного творчества: Автореф. Дис.……д-ра филол. наук. – Ташкент: 1977. – 48 с.

[3] Жўраева Б. Мақолларнинг лисоний мавқеи ва маъновий-услубий қўлланилиши: Филол. фан. Номз дис. – Самарқанд: 2002. – 136 б.

[4] Садриддинова М. Лексика узбекских пословиц и поговорок: Автореф. Дис.……канд. филол. наук. – Ташкент: 1985. – 18 с.

[5]Бакиров П.У. Номинацентрические пословицы в разносистемных языках (на материале русского, узбекского и казахского языков): Дис…….д-ра. филол. наук. – Ташкент: 2007. – 286 с.

[6] Muhammad As-Sulaim. A critical and comparative study of modern najdi Arabic proverbs: For the degree of Doctor of Philosophy. January, 1976. –555 p; Wafa Abu Bakr. The importance of proverbs in teaching Arabic. American University in Cairo, 2002. –137 p; Inam Ismael Taher. A Cognitive Semantic Study of the impact of socio-cultural factors on meaning. – Iraq: 2019. – 321 p.

[7] Шомусаров Ш. Араб ва ўзбек фольклори тарихий-қиёсий таҳлили. – Тошкент: Фан, 2002. – 316 б; Shu muallif. Арабский фольклор. – Ташкент: Fan. 1992. – 151 с.

[8] Қаххоров А.С. Ал-Жоҳизнинг “Китаб ал-ҳаяван” асарида “Масал”: Филол. фан. номз дис. – Тошкент: 1993. – 200 б.

الصديق وقت الضيق
(as-sadiqu vaqt ad-dayq)
“Do‘st tanglikda bilinadi.”

mazmunan do‘stlikning eng muhim mezonini ifodalaydi. Bu yerda “وقت الضيق” (qiyinchilik vaqti) iborasi orqali sinov vaziyati tasvirlangan bo‘lib, aynan shu paytda haqiqiy do‘st bilan soxta do‘st o‘rtasidagi farq ayon bo‘ladi. Semantik jihatdan bu maqolda yashirin qarama-qarshilik mavjud: yengil kun va og‘ir kun orqali do‘stlikning asl mohiyati ochib beriladi.

Yana bir maqol:

رُبَّ أَخٍ لَمْ تَلِدْهُ أُمُّكَ
(Rubba akhin lam talidhu ummuka)
“Ba’zan ona tug‘magan kishi ham senga aka bo‘lishi mumkin.”

Ushbu maqolda do‘stlik qon-qarindoshlikdan ham ustun qo‘yiladi. Bu yerda “أخ” (aka, birodar) so‘zi ko‘chma ma’noda ishlatilib, do‘stlikning ruhiy yaqinlikka asoslanishi ta’kidlanadi. Maqol metaforik xarakterga ega bo‘lib, insoniy munosabatlarning chuqurligini ifodalaydi.

Quyidagi maqolda esa do‘stlik va shaxs o‘rtasidagi bog‘liqlik ko‘rsatiladi:

قُلْ لِي مَنْ تُصَاحِبْ أَقُلْ لَكَ مَنْ أَنْتَ
“Kim bilan do‘st ekaningni ayt, sening kimligingni aytaman.”

Bu maqolda sabab-natija munosabati orqali insonning ijtimoiy muhiti uning shaxsiyatiga ta’sir qilishi ifodalangan. Do‘st tanlash masalasi bu yerda muhim ijtimoiy va axloqiy mezon sifatida talqin qilinadi.

Arab maqollarida soxta do‘stlik masalasi ko‘pincha ogohlantiruvchi mazmunda ifodalanadi. Bunday maqollar insonni ehtiyotkorlikka, do‘st tanlashda sinchkov bo‘lishga va har bir yaqin insonni sinovdan o‘tkazishga undaydi. Soxta do‘stlik obrazi odatda manfaatparastlik, xiyonat va qiyin vaziyatda yuz o‘girish kabi salbiy xususiyatlar bilan bog‘lanadi.

Masalan, arab maqolida shunday deyiladi:

قُلْ لِي مَنْ تُصَاحِبْ أَقُلْ لَكَ مَنْ أَنْتَ
“Kim bilan do‘st ekaningni ayt, sening kimligingni aytaman.”

Ushbu maqolda insonning shaxsiyati uning do‘stlari orqali baholanadi. Semantik jihatdan bu yerda “do‘st” tushunchasi ijtimoiy muhit va xarakter ko‘zgusi sifatida talqin qilinadi. Ogohlantiruvchi motiv shundan iboratki, yomon do‘st insonning obro‘siga ham, hayot yo‘liga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Yana bir maqolda soxta do‘stlikning asl mohiyati ochib beriladi:

مَنْ لَمْ يُوَاسِكَ فِي الشِّدَّةِ فَلَيْسَ بِصَدِيقٍ
“Qiyinchilikda yoningda bo‘lmagan kishi do‘st emas.”

Bu maqolda “shiddat” (qiyinchilik) mezon sifatida olinadi. Semantik tahlil shuni ko‘rsatadiki, do‘stlikning haqiqiyligi aynan og‘ir vaziyatda aniqlanadi. Bu yerda antonimik

qarama-qarshilik mavjud: haqiqiy do‘st-soxta do‘st. Ogohlantiruvchi motiv esa insonni faqat yaxshi kunlarda emas, balki sinov paytida ham yonida turadigan insonni tanlashga chaqiradi.

Xulosa. Arab xalq maqollarida do‘stlik konsepti ham ana shunday teran ma’no va badiiy ifoda orqali yoritiladi. Do‘stlik insoniy munosabatlarning eng muhim axloqiy va ijtimoiy qadriyatlaridan biri sifatida talqin qilinadi. Masalan, arab maqollarida chin do‘st qiyinchilikda bilinishi, sadoqat va vafodorlik esa do‘stlikning asosiy belgisi ekani ta’kidlanadi. Bu orqali do‘stlik nafaqat shaxsiy munosabat, balki jamiyatda o‘zaro ishonch va birdamlikni mustahkamlovchi muhim omil sifatida ko‘rsatiladi. Arab xalq maqollarida soxta do‘stlik mavzusi chuqur hayotiy tajriba va kuzatishlarga asoslangan holda yoritiladi. Ushbu maqollar orqali do‘stlik niqobi ostida yashiringan manfaatparastlik, ikkiyuzlamachilik va xiyonat kabi salbiy jihatlar ochib beriladi. Ayniqsa, manfaatga asoslangan munosabatlarning beqarorligi, tashqi mehr bilan ichki adovat o‘rtasidagi tafovut va ishonchsizlik motivlari asosiy g‘oya sifatida namoyon bo‘ladi.